



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
BUYRUG'I**

---

2024 yil 3 fevral U-90-sonli Buxoro sh.

**Talabalarning o'qishini (bahorgi semestr  
uchun) tiklash (ko'chirish) to'g'risida**

Buxoro muhandislik-texnologiya institutining oliy ta'larning mos va turdosh ta'lism yo'naliishlari bo'yicha talabalarning o'qishini (bahorgi semestr uchun) tiklash (ko'chirish) to'g'risida kelib tushgan arizalarini institut vakolati doirasida ko'rib chiqish bo'yicha komissiya yig'ilishi bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-son qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lism muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 27-bandiga asosan

**B U Y U R A M A N :**

1. Prorektorlar, fakultet dekanlari va bo'lim boshliqlariga: oliy ta'larning mos va turdosh yo'naliishlari bo'yicha talabalar o'qishini (bahorgi semestr uchun) tiklash (o'qish shaklini o'zgartirish) to'g'risida kelib tushgan arizalarini institut vakolati doirasida ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasining yig'ilish bayoni ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Oliy ta'larning mos va turdosh yo'naliishlari bo'yicha o'qishi to'lov-kontrakt asosida (bahorgi semestr uchun) tiklangan (o'qish shaklini o'zgartirgan) sobiq talabalarning ro'yxati 1-2-ilovalariga muvofiq tasdiqlansin.
3. Fakultet dekanlari talabalarning o'qishini (bahorgi semestr uchun) tiklash (o'qish shaklini o'zgartirish) to'g'risida kelib tushgan arizalarini institut vakolati doirasida ko'rib chiqish bo'yicha komissiya xulosasiga asosan har bir talabgorning murojaatini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha belgilangan tartibda ma'lumot taqdim etish tashkil qilinsin.
4. Mazkur yig'ilish bayonining 1-2-ilovalariga muvofiq institutining oliy ta'larning mos va turdosh yo'naliishlari bo'yicha talaba (sobiq talaba)larining o'qishini tiklash va ta'lim shaklini o'zgartirish to'g'risidagi murojaatlari namunaviy o'quv rejalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo'yicha farqlar 4 tadan oshgan taqdirda tegishli kursda o'qishi to'g'risida ogohlantirilsin.
5. Institut bosh hisobchisi tomonidan fakultet dekanlari bilan birqalikda 10 kunlik muddatda mazkur buyruqning 1-2-ilovasi asosida o'qishini tiklab

ко‘ chirishga ruxsat berilgan talabalar bilan to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish bo‘yicha shartnomalar qayta rasmiylashtirilsin.

**6. Fakultet dekanlari tomonidan:**

- 1 hafta muddatda ushbu buyruqning 1-2-ilovasida qayd etilgan talabalarni, talabalar safiga qayta tiklash (o‘qish shaklini o‘zgartirish) bo‘yicha belgilangan tartib va muddatlarda darslarga qatnashishiga ruxsat etish haqidagi institut rektorining buyrug‘i loyihasi tayyorlansin, bunda o‘quv rejalaridagi fanlari bo‘yicha farqlar aniqlangan talabalar akademik qarzdor sifatida qayd qilinsin;

- ushbu buyruqning 1-2-ilovasiga asosan o‘qishini tiklashiga ruxsat berilgan talabalarni talabalar safiga qabul qilish to‘g‘risidagi institut rektorining buyrug‘i loyihasi, ular belgilangan muddatda shartnomasi to‘lovlarni to‘laganidan so‘ng 5 kun muddatda tayyorlansin;

- akademik qarzdorligi (farqlari) mavjud mazkur talabalarga joriy semestr davomida akademik qarzdorlik (farqlar) bartaraf etilgan muddatdan boshlab, talaba tomonidan amalga oshirilgan kontrakt-to‘lovi stipendiyasi bo‘lgan taqdirda o‘rnatilgan tartibda stipendiya berish haqidagi institut rektori buyrug‘ining loyihasi tayyorlansin.

**7. Buyruqda ko‘rsatilgan barcha xodimlarni ushbu buyruq bilan tanishtirish xodimlar bo‘limi tomonidan bajarilsin.**

**8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.**

**Asos:** talabalarning o‘qishini (bahorgi semestr uchun) tiklash (ko‘chirish) to‘g‘risida kelib tushgan arizalarni institut vakolati doirasida ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya yig‘ilishining 27.01.2024 yildagi bayoni.

**Rektor**



**S.Siddiqova**